



Qurilish ishlari

RAQAMLAR:


- Qurilish-montaj ishlari hajmi – 926,1 mlrd. so‘m
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi – 16,5 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 54,2 foiz
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – 29,3 foiz

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 926,1 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,5 foizni tashkil etdi va 1,5 foiz punktga kamaydi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 152,4 mlrd. so'mni yoki 102,0 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 foiz punktga ko'paydi.




Qurilish ishlari, mlrd. so‘m




Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 897,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 96,9 foizini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 foiz punktga oshdi.

2018 yil yanvar-iyul oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Jami qurilish pudrat ishlari tarkibidagi "Bino va inshootlar qurilishi" faoliyat turi bo'yicha 616,4 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi, va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 foiz punktga koʻpaydi. Shuningdek, "Fuqarolik ob'ektlari qurilishi" faoliyat turi bo'yicha 110,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, yoki oʻtgan davrga nisbatan 13,5 foizga punktga kamaydi, "Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari" faoliyat turi bo'yicha 199,5 mlrd. soʻmga bajarilib, yoki oʻtgan davrga nisbatan 5,7 foiz punktga kamaydi.

Qurilish ishlari tarkibi

Yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish texnik qayta qurollantirish 668,5 mlrd. so'm


Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari 257,6 mlrd. so'm



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish va texnik jixotdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 668,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 257,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish ishlari 6,6 foiz punktga ko'paydi. Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 11,4 foiz punktga kamaydi.

2018 yil yanvar-iyul oylari uchun qurilish ishlari



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova

(0361) 222-75-91